




Toshkent
kimyo-tehnologiya
instituti



BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI

**1 O'TA QASHSHOQLIKKA
BARHAM BERISH**



1.3.2 - Sizning universitetingiz mamlakatdagi kam ta'minlangan eng quyi 20 foiziga (yoki aniqroq belgilangan maqsad) kiruvchi talabalar uchun bitiruv maqsadlariga egami?



Toshkent kimyo-texnologiya instituti hamkor ish beruvchilar bilan hamkorlikda universitetni muvaffaqiyatli tamomlash, kam ta'minlangan va ehtiyojmand talabalarni ish bilan ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni faol amalgal oshirmoqda.

2022-yil 11-noyabr kuni BON korxonasiga Toshkent kimyo-texnologiya institutining kadrlar bo'yicha taniqli mutaxassis tashrif buyurdi. Yig'ilishda marketing va talaba amaliyoti kafedrasini mudiri A.Mirkomilov, professor-o'qituvchilar va talabalar, xususan, oziq-ovqat ishlab chiqarish fakultetidan talabalar ishtirok etdilar.

Uchrashuv davomida kadrlar bo'yicha mutaxassis kompaniyadagi bo'sh ish o'rnlari haqida gapirib berdi. Uchrashuv ochiq muhokamaga aylanib ketdi, unda talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollarini berib, kompaniya haqida javob olishdi. Tashakkur sifatida kompaniya talabalarga o'zi ishlab chiqarayotgan shirinliklarni sovg'a qilish bilan uchrashuvni yakunladi.



<https://www.facebook.com/100063678666743/posts/555428076589810/?mibextid=rS40aB7S9Ucbxw6v>



2022-yil 23-sentabr kuni institutimiz tomonidan Uzbekistan GTL kompaniyasining “GTL stipendiyalar dasturi - 4” bo'yicha ochiq muloqot tashkil etildi.

✓ Unda Uzbekistan GTL kompaniyasi Personalni boshqarish bo'limi yetakchi mutaxassis Baratov Nurbek, Jamoatchilik bilan ishlash bo'yicha mutaxassis Komilov Alisher, Personalni boshqarish yetakchi mutaxassis Tillayev Sardor, institutimizning O'quv ishlari bo'yicha prorektori T.Safarov, Marketing va talabalar amaliyoti bo'limi boshlig'i A.Mirkomilov, YOOBKT fakulteti dekani M.Vapayev, NIKKT kafedra mudiri O.Aripdjanov, GKIKT kafedrasi mudiri Sh.Mengliyev, AOST kafedrasi mudiri A.Ziyadullayev hamda fakultet tyutorlari va talabalar ishtirok etishdi.

🎬 Tadbirda Uzbekistan GTL kompaniyasidan kelgan mutaxassislar yaqinda e'lion qilingan “GTL stipendiyalar dasturi - 4” tanlovida ishtirok etish tartibi, mezonlari va qoidalarini tushuntirib o'tdilar.

👤 Shuningdek talabalar ushbu tanlov bo'yicha o'zlarining qiziqtirgan savollarini berib, unga mutaxassislardan javob oldilar.



<https://www.facebook.com/100063678666743/posts/508310037968281/?mibextid=rS40aB7S9Ucbxw6v>



Talabalarning bandligini ta'minlash maqsadida turli korxona va tashkilotlar bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

2022-yil 18-noyabr kuni "Merit Chemicals" kompaniyasi vakillari va "Yoqilg'i va organik birikmalar kimyoviy texnologiyasi" fakulteti talabalari o'rtaida uchrashuv bo'lib o'tdi. Uchrashuv fakultet dekani M.Vapayevning kirish so'zi bilan boshlandi.

Merit Chemicals kadrlar bo'limi vakillari talabalarga kompaniyaning turli yo'nalishlari bo'yicha mavjud bo'sh ish o'rnlari va malaka oshirish istiqbollari haqida bat afsil ma'lumot berdi. Bundan tashqari, korxona vakillari ishlab chiqarish jarayonlari va mehnat jamoasi tarkibi haqida ma'lumot berishdi.

Tadbir davomida talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollarini berib, kompaniya vakillaridan mazmunli javoblar olish imkoniga ega bo'ldilar. Ba'zi talabalar kompaniyaga qabul qilinishiga malaka oshirish bo'yicha tavsiyalar yordam bergenini ta'kidladilar.

<https://www.facebook.com/100063678666743/posts/563682385764379/?mibextid=rS40aB7S9Ucbxw6v>



Merit Chemicals HR vakillari talabalarga bat afsil
ma'lumot berishdi



Ular besh nafar talabani ishga qabul qilishdi va 2 nafar
talabani malaka oshirish uchun tavsiya asosida
korxonaga qabul qilindi



Amaliy yordam uchun kompaniya marketing va
talabalar amaliyoti bo'limi boshlig'i Abdurahmon
Mirkomilovga "Tashakkurnoma" bilan taqdirladi